AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI



Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

23. Abū Isḥāq Ibrāhīm b. Muḥammad al-Fārisī al-Iṣṭākhrī. *Kitāb masālik al-mamālik*, ed. M. J. De Goeje – Leiden: Brill, 1927.
24. Magdalena Opała-Owczarek and Tadeusz Niedźwiedź. Last 1100 yr Precipitation Variability in Western Central Asia Revealed by Tree-ring Data from the Pamir-Alay. // *Quaternary Research* 91, 2019. – P. 81–95.
25. Sorrel Ph. et al. Climate Variability in the Aral Sea Basin (Central Asia) during the Late Holocene based on Vegetation Changes. // *Quaternary Research* 67, no. 3, 2007. – P. 357–370.
26. Sorrel Ph. et al. Hydrographic Development of the Aral Sea during the Last 2000 Years Based on a Quantitative Analysis of Dinoflagellate Cysts. // *Paleography, Paleoclimatology, Paleoecology* 243, no. 2–4, 2006. – P. 304–327.
27. Misa H. A Medieval Climate Anomaly: The Qarakhanid Adaptation. // *Journal of Interdisciplinary History* 54, no. 1, 2023. – P. 43–65.

Karimov Sherzod Shavkat o'g'li[1]

QO'SHVAZIRLIK – TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'ZIGA XOS TIZIM

THE DUAL MINISTRY SYSTEM — A UNIQUE GOVERNANCE STRUCTURE IN THE TIMURID STATE

Abstract. *Just as each state has its own method and system of governance, the Timurid Empire also had a specific system of dual viziership in the activities of the divan. This arrangement also influenced the work of ministers. This article analyzes this dual viziership, its definition, and its implementation in historical practice based on primary sources.*

Key words: *divanbigi, darugha, naib, «the closest person to His Majesty the Sultan», dual ministry, single ministry, sahib-i divan, wazir.*

Temuriylar davridagi (771/1370–912/1507) boshqaruvning o'ziga xos usullaridan biri bu ayni bir – lavozimga bir vaqtning o'zida ikki kishining tayinlanishi edi. Bu holat Temuriylar davri manbalarida, xususan, Xondamirning (879/1474–941/1535) *«Dastur al-vuzaro»* («Vazirlar uchun qo'llanma») asarida bir necha marta kuzatiladi. Vazirlikni ikki kishi boshqarishi odatiy hol bo'lib, aksincha bir kishi tomonidan boshqarilishi

[1] O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: shkarimov7789@gmail.com. ORCID: 0009-0002-8212-7744.

favqulodda holat sifatida qaralgan. Chunki, vazirlikni yoki devonning bir kishi tomonidan boshqarilishi uning mavqeyi va ta'sir kuchining ortganidan dalolat beradi. Masalan, G'iyosuddin Xondamirning xabar berishicha, 811/1408-1409-yillardan Shohrux Mirzoning (779/1377–850/1447) vaziri Sayyid Faxruddin Muhammad (vaf. 820/1417) qariyb o'n yil bu lavozimni mustaqil boshqargan [2: 94*a*; 4: 318–324]. Xuddi shunday holatlardan biri Sulton Husayn Mirzo (842/1438–911/1506) zamonida ham bo'lib, u hukmronligining dastlabki vaqtlarida Xoja Sayfuddin Muzaffar Shabonkoraning yolg'iz o'zini devonni boshqarishga tayinlagan [10: 399]. Sulton Husayn Mirzoning eng obro'li va mustaqil faoliyat yurituvchi vazirlaridan biri Xoja Majduddin Muhammad (vaf. 899/1494) edi. Uning devonni yolg'iz boshqarishiga Alisher Navoiy (844/1441–906/1501) ham qarshilik qilgan. 892/1486-1487-yillari Alisher Navoiy Astrobod viloyati hokimi etib tayinlangach, Hirotda Xoja Majduddinga to'sqinlik qiladigan boshqa hech kim yo'q edi. Shu jumladan, Sulton Husayn Mirzo ham davlatning barcha mol-mulk ishlari va devon boshqaruvini to'liq Xoja Majduddinga topshirdi [10: 405]. Shundan ko'rish mumkinki, Sulton Husayn Mirzoning davrida Xoja Majduddin katta ta'sirga ega bo'lgan. Shunday bo'lsa ham Xoja Majduddinga qarshi fitnalar natijasida oradan uch yil o'tib u lavozimidan ozod qilindi. 895/1489-1490-yillari Xoja Majduddinning o'rnini egallagan Xoja Qavomuddin Nizomulmulk (vaf. 903/1498) devonni mustaqil boshqarar edi [2: 99*b*]. Xondamir uning vafotiga qadar, ya'ni 903/1498-yilgacha shu tarzda faoliyat olib borganini ta'kidlaydi [2: 99*b*]. Xoja Qavomuddin Nizomulmulkning vafotidan so'ng eng yirik lavozimni Xoja Afzaluddin Muhammad Kermoniy (vaf. 904/1504) egalladi. U ham devon rahbarligini yolg'iz boshqargan bo'lib, barcha davlat amirlari va amaldorlari unga itoat etishar edi [2: 102*b*]. 904/1499-yilda Badiuzzamon Mirzo (862/1458–921/1515) Balxni egallab, mustaqil hokimiyat tuzganida uning vaziri Xoja Nizomuddin Ahmad *amoroti devon* lavozimiga tayinlanib, bu vazifani mustaqil boshqardi [10: 399].

«*Dastur al-vuzaro*»da keltirilishicha, nafaqat *devonbegi* lavozimi, balki quyi pog'onadagi lavozimlarga ham ikki yoki undan ortiq kishi tayinlangan. Temuriy hukmdorlarning ayni bir lavozimga ikki kishini tayinlashdan maqsadlari, albatta, ularning vakolatlarini tiyib turish, ta'sir doirasining kengayishiga yo'l qo'ymaslik bo'lgan. Bunday holatni biz «*qo'shvazirlik*» deb atashni taklif qilamiz. *Qo'shvazirlik* – bu hukmdor tomonidan bir lavozimga ikki yoki undan ortiq kishining bir vaqtning o'zida tayinlanishi va faoliyat olib borishlaridir. Biror lavozimda bir shaxsning mustaqil, yolg'iz o'zi faoliyat yuritishi esa *yakkavazir*lik deb ataladi. Shuni ta'kidlash kerakki, *qo'*shvazirlar ikki yoki undan ortiq bo'lib, ularningn vakolat va ta'sir doiralari bir xil bo'lsa-da, ko'pincha bunday vazirlarning xizmat vazifalari turlicha bo'lgan.

Qo'*shvazir*larni tayinlash Amir Temur (736/1336–808/1405) zamonida ham mavjud bo'lgan. Jumladan, 803/1401-yil Amir Temur Bag'dod

yurishidan so‘ng Tabrizga otlanganida Hirotdan Xoja Ali Simnoniy va Sabzavordan Xoja Sayfuddinlar[1] Amir Temurning xizmatiga kirishgan va ularning ikkovlari ham *sohibi devon* lavozimiga tayinlanganlar [10: 341]. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy (vaf. 858/1454) ham *«Ul mahalda Xoja Ali Simnoniy Hirotdan va Xoja Sayfuddin Luriy Sabzavordan kelib peshkashlar torttilar… Sohibqironning inoyat ko‘zi bularg‘a tushub, ikkalasini devon qildi»* [8: 370], deb yozgan[2].

Amir Temur hali davlat rahbari bo‘lmagan vaqtlari ham, vazirlik doirasidagi lavozim bo‘lmasa-da, *dorug‘a* lavozimiga ham ikki kishini tayinlagani haqida manbalarda ma’lumot uchraydi. Jumladan, 768/1367-yil O‘ljoy Turkon og‘o[3] kasallikka chalinganida Samarqandda Amir Hindukani ukasi bilan *dorug‘a* qilib qoldirib, o‘zi Shahrisabzga jo‘naydi [7: 74]. Yuqorida nomi zikr etilgan Sayyid Faxruddin Muhammad Shohrux Mirzoning o‘g‘li Mirzo Boysung‘ur (799/1397–837/1433) devoni a’lo rahbari bo‘lgach martabasi tushirildi hamda unga sherik qilib Xoja Nizomuddin Ahmad ibn Dovud tayinlandi [2: 94*b*]. Aynan uning sa’y-harakatlari tufayli Sayyid Faxruddin lavozimidan chetlashtirildi. Sayyid Faxruddin bo‘shatilgach Xoja Nizomuddin Ahmad ibn Dovud bilan Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad Xavofiy 820/1418-yildan sheriklikda vazirlikni boshqardi [2: 94*b*]. Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad Xavofiy (vaf. 857/1453)qarib o‘ttiz yil yuqori lavozimda faoliyat yuritgan bo‘lib [2: 94*b*], uning bu lavozimda Xoja Nizomuddin Ahmad ibn Dovuddan boshqa sheriklar ham tayinlangan. Jumladan, 838/1434-yil Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmadga Xoja G‘iyosuddin Seydi Ahmad ibn Xoja Nizomuddin Ahmad Andxudiy sherik qilib tayinlandi [6: 289; 10: 357][4]. Bundan tashqari Amir Alouddin Ali Shaqoniy[5], Xoja Shamsuddin Ali Bolichalar[6] ham Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad bilan sheriklikda devonni boshqargan [2: 95*b*]. *Qo‘shvazir*lar bir-birlarining faoliyatlarini taftish qilish holatlari ham kuzatiladi. Binobarin, Shohrux Mirzo Xoja G‘iyosuddin Pir Ahmad va Amir Alouddin Ali Shaqoniy bir-birlarining ishlarini tekshirish borasida ham buyruq bergan [10: 359].

Qisqa muddatda bo‘lsa ham *qo‘shvazirlik* holatida bo‘lgan amaldorlar ham bo‘lgan. Chunonchi, Mirzo Shoh Mahmudning davrida Xoja Kalon Turkish va Xoja Ali ibn Amir Xojalar sheriklikda vazirlikni boshqargan [10:

---

[1] Xoja Sayfuddinning ismi *«Dastur al-vuzaro»*ning Toshkent nusxasida Xoja Yusufuddin deb xato keltirligan [2: 93a].

[2] Ushbu voqea *«Osor al-vuzaro»*da ham kelgan bo‘lib, mazkur voqea 804/1402-yilda bo‘lib o‘tgani qayd etilgan [1: 169a].

[3] O‘ljoy Turkon og‘o – Amir Temurning ayoli, Chig‘atoy hukmdori Qozog‘onning o‘g‘li Amir Muslinning qizi, tug‘ilgan sanasi noma’lum, 768/1367-yil vafot etgan.

[4] Abdurazzoq Samarqandiy (816/1413–887/1482) bu voqea 838-yil 10-safar/1434-yil 15-sentabrda bo‘lganini qayd etgan [5: 655].

[5] U vazir lavozimiga 819-yil rajab/1416-yil sentabr oyida tayinlangan [6: 238].

[6] Xoja Shamsuddin Ali Bolicha (yoki Bolij) Simnoniyning harakatlari bilan 845-yil 22-rabi’ al-avval/1441-yil 10-avgust kuni Xoja Amir Alouddin Ali Shaqoniy (yoki Shig‘oniy) vazirlikdan chetlatildi va ertasi kuni uning o‘zi vazir lavozimiga tayinlandi [6: 304].

365]. 861-yil rajab/1457-yil iyun oyida Mirzo Ibrohim ibn Alouddavla (843/1440–863/1459) Hirotni egallaganida ham oz fursat davomida Xoja Shamsuddin Muhammad Buxoriy va Xoja Muhammad Sa'duddinlar bir vaqtning o'zida *sohibi devon* lavozimlariga tayinlanganlar.

Qo'shvazirlik tizimidan eng yaxshi foydalangan hukmdorlardan biri bu Sulton Abu Said Mirzodir (827/1424–873/1469). Bir vaqtlar Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bekning (796/1394–853/1449) vaziri bo'lgan Xoja Na'imuddin Ne'matulloh Qo'histoniyni[1] 865-yil rabi' al-avval/1461-yil yanvar oyida vazir lavozimiga Xoja Muzaffar Muxtor Sabzavoriy bilan sherik qilib tayinladi [2: 96*a*]. Abdurazzoq Samarqandiy ularga Xoja Kamoluddin Mavlono Amir Samarqandiy ham sherik bo'lganini yozgan [5: 509]. Sulton Abu Said Mirzoning eng mashur vazirlaridan bo'lmish Xoja Qutbuddin Tovusning (828/1425–900/1495) vazirligiga sherik etib Xoja Ismoil Xo'joniy tayinlangan [10: 377]. Xoja Ismoilning laqabi «bo'ri» edi. Shuning uchun ham bu ikki vazirni odamlar kelisha olishmaydigan vahshiy hayvon va qushga o'x-shatishgan [10: 377].

Nafaqat oliy mansablar, balki kichik lavozimlarga ham amaldorlar sherikchilik asosida tayinlangan. Masalan, Sulton Abu Said Mirzo davrida Xoja Majduddin Muhammad bir necha vaqt *insho* lavozimida Nizomuddin Abdulhay munshiy bilan sherikchilikda ishlagan [9: 752]. Kichik lavozimlarga amaldorlarni sherikchilik asosida tayinlashdan maqsad ularning vakolatlarini cheklash emas, balki xodimning zimmasidagi yuklamalarni kamaytirish, shu bilan birgalikda, zaxira kadrlarni tayyorlash bo'lgan. Chunki, e'tibor qiladigan bo'lsak aksar yuqori lavozimli amaldorlar «qalam ahli», ya'ni *munshiy* yoki *mustavfiy*lardan yetishib chiqqan.

Sulton Husayn Mirzo zamonida esa *qo'shvazirlik* uncha ko'p bo'lmagan. Asosan hukmronligining dastlabki davrlarida *qo'shvazir*larni tayinlagan. Keyinchalik, ayniqsa, Xoja Majduddin Muhammadning mustaqil vazirligidan so'ng deyarli *qo'shvazir*lar tayinlanmagan. Buni, nafaqat, Sulton Husayn Mirzo balki, butun Temuriylar davlatining zaiflashgani bilan izohlashimiz mumkin. Chunki, kuchli siyosat yurita oladigan hukmdorlargina vazirlarning oliy hokimiyatga yoki ulkan boshqaruv salohiyatiga ega chiqmasliklari uchun *qo'shvazirlik*dan foydalanishgan. Hukmronligining dastlabki vaqtlarida Sulton Husayn Mirzo ham ana shunday davlat rahbarlaridan bo'lib, bunday siyosat yuritishda Alisher Navoiyning ham hissasi katta edi. Jumladan, Alisher Navoiy mavqeyi ortib borayotgan *sohibi devon* lavozimidagi Xoja Alouddin ibn Ali as-Soneiyning ta'sirini kamaytirish uchun Xoja Qavomuddin Nizomulmulk Xavofiyni majlislarda va muhr bosishda Xoja Soneiydan yuqori turishini buyuradi [2: 98*b*]. Ma'lumki, vazirlar orasida eng oliy mansab *sohibi*

[1] Uning ismi Toshkent nusxasida [2: 95*b*] Xoja Na'imuddin Qo'histoniy Rahmatulloh va Berlin nusxasida [3: 217*v*] Xoja Na'imuddin Ne'matulloh Qo'histoniy deb berilgan. Asli Toshkent nusxasining keyingi sahifasida uning ismi Rahmatulloh emas, balki Ne'matulloh deb keltirilgan [2: 96*a*]. Rahmatulloh kotibning xatosi tufayli yozilgan bo'lishi mumkin.

devon, ya'ni bosh vazir lavozimi bo'lishiga qaramasdan, Alisher Navoiy barcha vazirlar va amirlardan yuqori turuvchi Sulton Husayn Mirzoning *noib*i edi. Shuning uchun ham hattoki *devonbegi*larni tayinlash va ozod etishda uning fikri muhim hisoblangan. Bejizga uni Amir Alisher yoki «*hazrati sultoniyning eng yaqin kishisi*», deb atashmas edi.

Alisher Navoiy va Xoja Majduddinnig orasidagi sovuq munosabat ana shu «eng yaqin kishi» bo'lish sababidan bo'lsa ajabmas. Chunki, Xoja Majduddin faoliyatining boshida Sulton Husayn Mirzo taxtining yonida o'tirib, barcha hujjatlarni yozib borar, shu tufayli u Sultonning eng yaqin kishilaridan edi [10: 401; 9: 752]. Shunday bo'lsa ham u Alisher Navoiychalik Sulton Husayn Mirzoning yaqini bo'la olmadi.

Xoja Qavomuddin Nizomulmulk va Xoja Afzaluddinlar sheriklikda *sohibi devon* bo'lsalarda [2: 98*a*], ammo mol-mulk ishlarini Xoja Majduddinning o'zi bajarar edi [10: 402]. Sulton Husayn ikki nafar d*evonbegi*si bo'la turib mamlakatning asosiy siyosati hisoblangan moliya tizimini uchinchi shaxsga topshirishi, albatta, uning vazirlarni yaxshigina siyosiy o'yin girdobiga g'arq qila olganini ko'rsatadi. Bu ikki *devonbegi*ning sa'y-harakatlari bilan Xoja Majduddin lavozimidan bo'shatilsa-da, *devon*dagi muhim lavozimlardan biri bo'lgan *parvonachi* lavozimiga tayinlandi. Ammo, bu lavozimga Amir Muhammad bushakchi[1] bilan to'qqiz yil sherik bo'lib ishladi [9: 787; 10: 404]. Uning qayta *devonbegi* bo'lishiga, avval ta'kidlaganimizdek, Alisher Navoiy to'sqinlik qilar edi [9: 787; 10: 404]. E'tibor qiladigan bo'lsak, 892/1486-1487-yillardan so'ng, ya'ni Alisher Navoiyning Astrobodga jo'natilishi hamda Xoja Majduddinning mustaqil *devonbegi* bo'lishidan so'ng deyarli *qo'shvazir*lar tayinlanmadi. Xoja Majduddindan keyingi *devonbegi*lar – Xoja Qavomuddin, Xoja Afzaluddin, Sayyid Zaynulobidin Mahmud, Xoja Darvesh Ahmad Qobizlar (vaf. 912/1507) mustaqil ravishda *devonbegilik* qilishgan. Sulton Husayn Mirzo hukmronligining siyosiy inqirozlar davri ham ayni shu choqqa to'g'ri keladi. Bundan aytish mumkinki, Sulton Husayn Mirzoning boshqaruvni vazirlariga berib qo'yishi va ularni kerakli vaqtda tiyib tura olmagani uchun ham boshqaruvni qo'ldan chiqarib qo'ygan. Demak, Temuriylar saltanatida *qo'shvazirlik* tizimi yaxshi ishlagan vaqtda hukmdorlar kuchli siyosiy jarayonlarni boshqara olgan, vazirlarning mustaqilligi esa davlat rahbarining siyosiy zaifligidan darak beradi.

Xulosa. Temuriylar saltanatida *qo'shvazirlik* asosida vazirlarni boshqarish aksar hukmdorlar davrida bo'lib o'tgan. Jumladan, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Abu Sa'id Mirzo, Sulton Husayn Mirzo kabi eng yirik va kuchli siyosat yuritgan hukmdorlar vazirlarni tez-tez lavozimga tayinlab hamda ularni tez-tez almashtirib ham turishar edi. Ana shu voqealar jarayonida esa bir lavozimga ikki, ba'zida esa uch-to'rt kishi ham tayinlanar edi. Bu vazirlarning

[1] Bu shaxsning ismiga «bushakchi» nomi qo'shib yozilishiga qaramay [10: 404], asli «to'shakchi» deb o'qilishi kerak. Chunki, «Habib as-siyar»da Amir Muhammad «to'shakchi» deb yozilgan [9: 787].

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHI 3

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. *Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida* 5
Пуговкина О. *Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции* 9
Mehti-zade S.Ç. *Azerbaycan’ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi’nin «seyahatname»sinde* 16
Aminov H.A. *Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.* 22
Muhammadaminov S.M. *Movarounnahrda mug‘ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo‘lyozmalari xususida* 29
Lutfillayev H.M. *Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta’limoti* 35
Abdupattayev M.M. *Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylik va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi* 39
To‘rayev L.A., Nizomova N.Q. *Mahmud Zamaxshariy «Rabi’ al-abror» asarining Yevropadagi qo‘lyozmalari tavsifi.* 42
Jaynarov O.H. *O‘zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o‘tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.* 50
Musametov B.E. *Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida* 55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. *«Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida.* 61
Faromarzi F., Vohidova M. *Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).* 66
Fayzullayev F.E. *Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi* 76
Kuranbayeva U. *Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.* 81
Mamadjanov A.A. *«Tuhfat al-xoniy» Mang‘itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba* 85
Murodova R.D. *O‘zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi* 91
Nasirillayeva N.F. *Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi* 97
Ostonov J.D. *Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag‘ishlangan fransuz tilidagi ba’zi tadqiqotlar* 105
Xidirova G.R. *«Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi* 112
Хуснутдинов Ф.Р. *Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза* 117
Чориев Ш.Х. *Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства* 121
Saparov S.X. *O‘zbekistonlik olimlarning kidariylar bo‘yicha tadqiqotlari.* 129

Ishiyama M. *The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston»*. 134
Идиев А. *Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане* 143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. *Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir*. 149
Rahimov K.R. *O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan*. 157
Jamolova D.M. *Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari*. 162
Azizpour Sh. *Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue* 169
Axmatov A. *Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri*. . 178
Djumaniyazova F. *Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari*. 182
Ismoilov Sh.Z. *X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida)*. 189
Misa H.R. *O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida*. 195
Karimov Sh.Sh. *Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim*. 200
Адилов Дж. *Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика*. 206
Aslonova A.A. *Buxoro adıblarınıng pedagogık faolıyati*. 213
Ermatova M.A. *Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni* 217
Hamrayev S. *Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?* 222
Jumaeva N.A. *From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s)*. 228
Nosirov Sh.O‘. *Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki* 237
Quvvataliyev U.B. *Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida* 241
Suvonkulov M. *Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)* 246
Toshtemirova Sh.Sh. *Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik* 253
G‘oyibnazarova M.O‘. *Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an’analar haqida*. 259
To‘rayeva G.B. *O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta’minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar* 264

ISLOMSHUNOSLIK

Usmanov I.S. *Hanafiy mazhabida shar'iy hiylalar*. 272
Ismatova N.A. *Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)* 280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. *Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах* 284
Jumaniyozov M.D. *«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili*. 291
Jo'rayev M.X. *Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi*. 304
Mirzayev N.M. *Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida*. 310
Dadamirzaev M.O. *Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili*. 315
Salimova D.A. *«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi*. 320
Samsakova H. *Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi*. 326
Sayfullaev M.S. *«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni*. 330
Yunusova S.O. *«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi* . . 334
Hamdamova Sh.V. *Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi*. 341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. *O'rtaturk tili va o'rtabitik yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojidagi o'rni* 347
Yanar C. *Türk dünyasi dokuma mirasinda samsun yöresi dokumalardan bazi nakişlar (elibelinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)*. 353
Пилипчук В.Я. *К истории басмыльской государственности*. 363
Memmedova M.N. *Azerbaycan ve özbek halk kültüründe doğum ritüelleri* 365
Özkurt K. *From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yildirim Bayezid* 378
Тохтиев Ш.Р. *Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране* 391
Xodjimuratova D.S. *Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari*. 398
Kamoliddinov F.B. *Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari* 404
Nurumbetova S.R. *Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi* 409
Tojiev D.B. *Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects* 413

Xamdamov E.I. *Ziyo Go‘kalp qarashlarida ixtiyoriy hayotni tushunish* 421
Xomidov D.I. *Jamoliddin Afg‘oniy diniy-falsafiy qarashlarining Nosirxon To‘raga ta’siri* 428
Yuldashov Sh.A. *XX asrning birinchi yarmidagi Sharqiy Turkiston madaniy hayoti* 432
Шаймергенова Г.А., Байдаров Е.У. *Перспективы развития ШОС в контексте Казахстанско-Китайского стратегического партнерства* 437

FILOLOGIYA

To‘xliyev B., Qurbanboyeva Z. *Ayyub – o‘zbek adabiyoti tarixidagi yangi nom* 443
Eshonova S.N. *Devonlar yig‘ma matni: talqin va yondashuvlar* 450
Kasımova S.A. *Masallarda karaçuha imgesinin epik-mifoloji anlam özellikleri* . . .455
Madaliyeva O.R. *Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya»si qo‘lyozmalari: alif harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning matn tafovutlari* 462
Mehman A.H. *The creation of the Turkic peoples’ novel in the context of world literature.* 481
Rahmatova G.O. *«Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan she’rlarni tadqiq etish usullari.* 487
Sulaymonova H.M. *«Rasailu-l-Xavarazmiy» asari arab epistolyar adabiyoti namunasi sifatida* 493
Mahmadrajabov F.D. *Badri Chochiy devonining O‘zbekiston va Erondagi qo‘lyozmalari* 499

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

